

Abdurahmonov Shavkatjon Ashurovich,

NamDU o'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti,

filologiya fanlari nomzodi

Topiljonova Namuna Muydinjon qizi,

NamDU mustaqil tadqiqotchisi

ABDULLA ORIPOV SHE'RLARIDA PRETSEDENT NOMLARNING

QO'LLANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada pretsedent nomlarning o'zbek tilshunosligidagi ahamiyati va turlari, shuningdek, Abdulla Oripov she'rlarida pretsedent birliklarning qo'llanilishi va ularning she'riy matndagi poetik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pretsedent nom, leksik poetonim(pretsedent birlik), morfologik poetonim, sintaktik poetonim.

Абдурахманов Шавкатжон Ашурович,

Доцент кафедры узбекского языкознания НамГУ,

кандидат филологических наук

Топилжонова Намуна Муйдинжон кизи,

Независимый исследователь НамГУ

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРЕЦЕДЕНТНЫХ ИМЕН В СТИХАХ

АБДУЛЛЫ АРИПОВА

Аннотация: В данной статье анализируется значение и типы прецедентных имен в узбекской лингвистике, а также использование прецедентных единиц в стихах Абдуллы Арипова и их поэтические особенности в поэтическом тексте.

Ключевые слова: прецедентное имя, лексический поетоним (прецедентное единственное число), морфологический поетоним синтаксический поетоним.

Abdurahmanov Shavkatjon Ashurovich,

Associate Professor of the Department

of Uzbek Linguistics of NamSU,
candidate of philological sciences

Topiljonova Namuna Muydinjan kizi,

Independent researcher of NamSU

THE USE OF PRECEDENT NOUNS IN THE POEMS OF ABDULLAH ORIPOV

Annotation: this article analyzes the importance and types of precedent nouns in Uzbek linguistics, as well as the use of Abdullah Oripov and their poetic features in the poetic text.

Keywords: prepositional noun, lexical poetonym(prepositional singular), morphological poetonym, syntactic poetonym.

Kirish

Bugungi zamonaviy dunyoda tilshunoslik sohasida til va madaniyat yoʻnalishlarini bogʻlab turuvchi lingvokulturologiya masalalari koʻplab tilshunoslar tomonidan oʻrganilayotgan boʻlsa ham, ammo hali toʻla oʻrganib boʻlinmagan soha hisoblanadi. Oʻzbek tilshunosligida va ayniqsa, jahon tilshunosligida keyingi yillarda tilning milliy xususiyatlarini xarakterlovchi birliklar sifatida pretsedent nomlar va ularning badiiy uslubdagi funksiyasi sifatida namoyon boʻluvchi poetonimlar masalasiga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Pretsedent birliklar milliy xarakterning oʻziga xosligini belgilaydigan va nutq xatti-harakatlariga taʼsir koʻrsatadigan bilim asosining negizini yaratib beradi.

Adabiyotlar tahlili

Dunyo tilshunosligida pretsedent birliklar masalasi oʻtgan asrdayoq chuqur tadqiq etilgan. Chunonchi, rus tilshunosligida bu sohadagi izlanishlar koʻproq. Xususan, Y.N.Karaulov, D.V.Bagayeva, O.C.Boyarskix, C.V.Bannikova, Y.A.Blinova, O.A.Vorojtova, D.B. Gudkov, E.A.Naximova, N.M.Orlova, I.P.Ziryanova, M.Y.Ilyushkina, E.F.Kosichenko, G.G.Sergeevalarning pretsedent birliklar va ularning turlaridan biri hisoblangan pretsedent nomlarni tadqiq etishgan. Oʻzbek tilshunosligida ham onomastik birliklar keng tadqiq etilgan. E.Begmatov, Gʻ.Sattorov, S.Rahimova, D.Yoʻldashev, R. Xudoyberganov,

S.Husanov, N.Uluqov, M.Mamajonov, S.Kenjayevalarning tadqiqot ishlarida onomastika sohasi chuqur o'rganilgan. Lekin onastika guruhiga kiruvchi pretsedent nomlar o'zbek tilshunosligida olimlarimiz tomonidan to'liq o'rganilib chiqilmagan. Jumladan, 2022-yilda N.Ahmadjonov "Badiiy uslubda qo'llanilgan pretsedent nomlarning lingvopoetik tadqiqi"[1] nomli dissertatsiya ishida ularni turli badiiy manbalardan olingan misollar asosida tadqiq qilgan. Biroq Abdulla Oripov she'rlarida pretsedent birliklar o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada Abdulla Oripovning she'rlarida pretsedent birliklarni tadqiq etish jarayonida tasniflash, lingvistik tahlil, lingvopoetik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar

Pretsedent nom – bu pretsedent matn yoki pretsedent vaziyat bilan bog'liq bo'lgan individual ism yoki ma'lum bir sifatlariga xos bo'lgan yozuvlar to'plamini ko'rsatuvchi ramziy nom[2]. Pretsedent nomlar ma'lum bir differensial xususiyatlar to'plamiga ega, ular bir yoki bir necha elementlardan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, kishi ismlari: Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Nodira, Furqat, Muqimiy kabi. Mamlakat va shahar nomlari: O'zbekiston, Namangan, Toshkent; geografik nomlar: Pomir, Sirdaryo, Amudaryo. V.Maslova ta'riflashicha, "pretsedent nomlar – ma'lum bir millat vakillariga tanish bo'lgan vaziyatlar bilan, mashhur matnlar bilan bog'liq bo'lgan individual nomlardir"[3].

Pretsedent nomlar tarqalish doirasiga va miqyosiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Miliy pretsedent birliklar.
2. Universal pretsedent birliklar.

Milliy pretsedent birliklar deb, biror xalqning in'qilobiyatiga xos bo'lgan, shu xalq uchun mashhur bo'lgan nomlarga aytiladi. Masalan:

Dunyoda biror nom qoldirmoq uchun

Yurt buzish shart emas, degan gap-ku, rost.

Kimdir pesh qilganda nayzaning kuchin,

***Alisher** qalamni ko'rsatgan, xolos.*(Abdulla Oripov "Alisher") [4]

Ushbu matnda Alisher milliy pretsedent nom hisoblanadi. Ayni paytda, Alisher nomining pretsedent nom sifatida tushunilishiga ayni shu matn asos bo'ladi. Matndan tashqarida bu nomni pretsedent birlik sifatida qabul qilmaslik ham mumkin. Yana shuni ham aytish mumkinki, Alisher nomi buyuk mutafakkir shoirning nomi sifatida jahonga ma'lum bo'lgan universal pretsedent nom darajasiga ko'tarilgan.

Universal pretsedent nomlar deganda, butun dunyo xalqlari uchun taniqli bo'lgan nomlar tushuniladi. Shoir she'ridan olingan quyidagi matnda **Napoleon** so'zi shunday pretsedent nom hisoblanadi:

Lofchining uslubi shundoqdir azal,

Mahliyo qilay sizni yolg'onga.

Qay kuni bir lofchi der edi dangal:

*-Shapaloq tortganman **Napoleon**ga.* (Abdulla Oripov "Lof")

Napoleon – Fransiya imperatori hisoblanadi. 1804-yilda Fransiya taxtiga o'tiradi. Napoleon davrida uzluksiz ravishda urush olib brogan. G'alabalari tufayli Rossiya chegaralarigacha bo'lgan hududni bosib olgan. Keltirilgan she'riy parchada keltirilgan Napoleon shaxs nomi universal pretsedent birlik vazifasini bajarilib kelgan.

Pretsedent nomlar deganda, odatda, biror xalqning madaniyatiga tegishli taniqli nomlar tushuniladi. O'zbek xalqi madaniyatiga tegishli ayrim taniqli nomlar umuminsoniy madaniyatga daxldorligi bilan ajralib turadi.

O'zbek tilshunosligida pretsedent birliklar tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy ishlarga tayanib, pretsedent nom (poetonim)larni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Leksik poetonimlar.
2. Morfologik poetonimlar.
3. Sintaktik poetonimlar.

Predsedent nomlar Abdulla Oripov she'rlarida poetik matn mazmunini boyituvchi nom sifatida ko'plab uchraydi. Ayniqsa, leksik poetonimlar – bir

o‘zakli atoqli otlarni leksik pretsedent birlik sifatida shoir she’rlarida alohida o‘rin tutadi:

*Ta’zim qilsang arzir **Qo‘qonga**, chunki*

***Muqimiy** va**Furqat** kabilari bor.*

O‘zbekning san’atin dunyoga yoygan,

*Betakror **Rahimov Nabilari** bor. Abdulla Oripov “Arzir” she’rida[5]*

Yuqoridagi she’riy parchada Muqimiy, Furqat, Nabi Rahimov kabi shaxs nomlari, Qo‘qon toponimi leksek pretsedent nomlar sifatida matn mazmunini boyitishda signalizator vazifasini o‘tagan.

Abdulla Oripovning “Ma’mun akademiyasi” she’rida leksek pretsedent birliklardan keng foydalanilgan:

*Yana **Beruniy** deb bo‘zladik chanqoq,*

*Yana har xonadon **Sinoga** muhtoj.*

Tarixdan ma’lumki, Beruniy va Ibn Sino kabi olimlarimiz Ma’mun akademiyasida faoliyat olib borishgan. Beruniy matematika sohasiga oid, Ibn Sino esa tibbiyot sohasida ko‘plab asarlar yozgan. Shoirning bu she’riy parchasida Beruniy, Ibn Sino kabi antroponimlar keltirib o‘tilgan bo‘lib, she’riy qismda pretsedent birlik vazifasida kelgan.

Morfologik poetonimlar – juft so‘z qolipidagi pretsedent nomlardir. Shoirning lirikasida turli xil pretsedent nomlarni uchratamiz. “Nasaf madhiyasi” she’rida shunday morfologik poetonimlarni kuzatish mumkin:

Osiyo bag‘rida kamtarin makon,

Sen oftob o‘lkasi, sen yulduziston.

Sen uchun hamisha fido bo‘lsin jon,

Sen borsan o‘zbekning g‘ururi shoyon.

*Ey qadim ota yurt – **Nasaf-Qarshimsan.***

Nasaf shahri – Qarshi vohasida, Qashqadaryoning quyi oqimida joylashgan. Nasaf qadimiy shaharlardan biri hisoblanadi. Abdulla Oripovning “Nasaf madhiyasi” she’ri o‘zining tug‘ilib o‘sgan yurtidan g‘ururlanib bitilgan. Bu

she'riy parchadagi *Nasaf-Qarshimsan* juft so'zi pretsedent nomga aylangan poetonim allyuzivlik vazifasini bajargan.

Sintaktik poetonimlar- bunday pretsedent birliklarga so'z birikmasi shaklidagi, izofaviy birikma shaklidagi, shuningdek, sodda va qo'shma gap shaklidagi pretsedent birliklarni o'z ichiga oladi:

Deydilar it hurar-o'tadi karvon

Ranju balolardan yonmasin joning,

Lekin alam qilar bir umr giryon

Itlar orasidan o'tsa karvoning. Abdulla Oripov "Men anglab yetgan falsafa"

Yuqoridagi she'riy matnda "it hurar-o'tadi karvon" maqoli sintaktik poetonim – pretsedent birlik bo'lib kelgan. She'riy matnda bunday maqollardan foydalanish mumtoz adabiyotda irsoli masal she'riy san'ati ham deyilgan.

Keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, O'zbek tili egalari lisoniy ongida mavjud bo'lgan pretsedent birliklar til tizimida ham o'ziga xos mikrotizimni yuzaga keltiradi.[9]

Xulosa

Yuqoridagi tahlil qilingan fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, pretsedent nomlar biror millatga mansub bo'lgan mashhur nomlarsifatida lingvomadaniy birlik bo'lib, matn shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Ko'plab yozuvchi va shoirlarimiz asarlarida pretsedent birliklardan foydalanishgan. Chunonchi, Abdulla Oripovning ham she'rlarida pretsedent nomlar ko'p. Shoir she'rlaridagi pretsedent birliklarni tahlil qilib, ularni lingvopoetik jihatdan o'rganish, Abdulla Oripov lirikasining ahamiyati, shoir mahorati va uning mazmun-mohiyatini to'laqonli tushunishda muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmadjonov N. Badiiy uslubda qo'llanilgan pretsedent nomlarning lingvopoetik tadqiqi: Filol.fan. falsafa doktori ...diss. – F.2022

2. Гудков, Д. Б. Теория и практика межкультурной коммуникации [Текст]

/ Д.Б. Гудков. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2003. – С.108

3. Маслова В.А. Лингвокультурология – М.2001. – С.47
4. Oripov A. “Ruhim” she’riy to’lami. 1968
5. Oripov A. Quyosh bekati:she’rlar, maqolalar, suhbatlar – T., “Sharq”, 2010.

– 384 b

6. Shavkatjon Ashurovich Abdurahmanov. HISTORICAL ANTHROPONYMIS OF THE UZBEK LANGUAGE (Based on Salohiddin Tashkendi's "Temurnoma") International Scientific Journal Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Year: 2020 Issue: 11 Volume: 91 Published: 26.11.2020 <http://T-Science.org>.
7. Shavkatjon Abdurahmonov, Nozima Abdulbokievna Kozokova. EXPRESSION OF PRAGMATIC MEANING IN LEXICAL UNITS.International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Year: 2021 Issue: 08 Volume: 100 <https://e-library.namdu.uz>
8. Shavkatjon Ashurovich Abdurahmonov. THE ROLE OF GENDER FACTORS IN FORMATION OF PERSONALITY SPEECH. Published by Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology: Vol. 1: Iss.3,Article32.Availableat: Xudoyberganova D. Matnning atroposentrik tadqiqi. – Monografiya. – T.:Fan nashriyoti.2013. B.135.